## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

| Amaliy loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
| --- | --- |
| **Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning dunyoqarashini ijobiy shakllantirish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish va reabilitatsiya qilish bo‘yicha uslublar majmuasini ishlab chiqish**  | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>ozodlikdan mahrum etilgan va ozodlikka chiqqan shaxslarni tarbiyalash bo‘yicha shaxs ongini ijobiy tomonga o‘zgartirishdagi tajribalar tadqiq qilinadi;<br>ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni axloqan tuzatish, ularda ijobiy xususiyatlarni va dunyoqarashni shakllantirish uslublari ishlab chiqiladi;<br>ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarda Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va oshirish metodikasi hamda huquqiy ongini rivojlantirish algoritmi ishlab chiqiladi;<br>axloqan tuzalmagan, tartibbuzar va ozodlikka tayyorlanayotgan shaxslarni axloqan tuzatish hamda radikal qarashlardan qaytarish bo‘yicha “Tarbiya kursi” o‘quv-tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqiladi;<br>manzil-koloniyalarida saqlanayotgan shaxslarning belgilangan hududni tashlab ketib qolishini oldini olish bo‘yicha ilmiy-amaliy dastur ishlab chiqiladi;<br>jazoni ijro etish muassasasida tartibbuzarlik sodir etilishi va ozod bo‘lganlarning qayta jinoyat sodir etishi kamayadi;<br>ozodlikka chiqqanidan keyingi reabilitatsiyasi bo‘yicha samarali tizimi yaratiladi, shuningdek kompleks tadbirlardan iborat yagona samarador mexanizm ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinadi;<br>axloqan tuzalganlikni baholash algoritmi va metodikasini ishlab chiqiladi *(elektron dastur)*.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish.** Tadqiqot natijalari jazoni ijro etish koloniyalari va manzil-koloniyalarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ichki ishlar vazirligi xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan *Scopus / Web of Science* ma’lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ichki ishlar vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |